

SIYOSIY DISKURSDA KIRISH SO‘ZLARNING OG‘ZAKI TARJIMASI

(Xitoy - o‘zbek tillari misolida)



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7461011>

Farzona NOROVA,
TDSHU o‘qituvchisi,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998972650456;
Email: farzona.norova@gmail.com

Annotatsiya. *Kirish so‘zlar nutqda juda muhim o‘ringa ega bo‘lib, so‘zlovchining his-tuyg‘ularini va muloqotchilar orasidagi munosabatni ifoda etishdan tortib nutqning mantiqan bog‘liqligi va yaxlitligi ta‘minlash kabi vazifalarni bajaradi. Bu vazifalar siyosiy diskursda ayniqsa ahamiyatga ega. Ushbu maqolada kirish so‘zlarning xitoy va o‘zbek tillarida qo‘llanilishi hamda tarjimasi haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *kirish so‘zlar, siyosiy diskurs, tarjima.*

Аннотация. *Вводные слова занимают очень важное место в речи, выполняя такие задачи, как выражение чувств говорящего и отношения между собеседниками, обеспечение логической связи и целостности речи. Эти задачи особенно важны в политическом дискурсе. В этой статье представлена информация об их использовании и перевод в китайском и узбекском языках.*

Ключевые слова: *вводные слова, политический дискурс, перевод.*

Abstract. *Introductory words play a significant role in the speech, performing tasks like expressing the feelings of the speaker and the relationship between the interlocutors, as well as ensuring the logical connection and integrity of the speech. These tasks are especially vital in political discourse. This article provides information on the use and translation of introductory words in Chinese and Uzbek languages.*

Key words: *introductory words, political discourse, translation.*

O‘zbek va xitoy tillarida kiritmalar so‘z, so‘z birikmasi hamda gap ko‘rinishida kelishi mumkin. So‘z va so‘z birikma ko‘rinishidagi kiritmalar, asosan, so‘zlovchining subyektiv munosabatini bildirish, ma‘lumotning kimga tegishli ekanini hamda nutqning uyg‘unligini ta‘minlash uchun foydalanilsa, gap ko‘rinishidagi kiritmalar ko‘proq

qo‘shimcha ma‘lumot kiritish uchun qo‘llaniladi. Shu bilan bir qatorda, kirish so‘zlar gapda ma‘lum bir joyga ega bo‘lmagan holda, so‘zlovchining qo‘llashidan kelib chiqqan holda gapning boshida, o‘rtasida va oxirida kelishi mumkin. Ular ma‘lum grammatik ma‘noga ega bo‘lmasa ham, muhim pragmatik vazifalarni bajarishi bilan nutqning muhim bo‘lagi hisoblanadi.

Grammatika nuqtai nazaridan, o‘zbek tilida kiritmalar gap bo‘laklari bilan hech qanday grammatik aloqaga kirishmaydigan bo‘lak hisoblanib, ular ko‘proq pragmatik birlik hisoblanishi mumkin. Kirish so‘zlar gap bo‘lagi sanalmasa ham, gapda ma‘lum ma‘noni ifodalaydi, ya‘ni so‘zlovchining ifoda etayotgan fikriga shaxsiy munosabatini (“baxtinga”), bahosini (“ehtimol”) ifoda etish va ma‘lumotning kimga qarashli ekanligini (“menimcha”) bildiradi. Kirish so‘zlar nutqdagi fikr yoki ma‘lumotning oldin kelgan fikr yoki ma‘lumot bilan aloqasini (“xullas”, “nihoyat”) hamda fikrlarning tartibini ifodalashda ham ishlatiladi.

Xitoy tilida esa kiritmalar haqida ikki xil qarash mavjud. Birinchi oqim kirish so‘zlarni gapning boshqa bo‘laklariga bog‘lanmagan alohida mustaqil bo‘lakligini ta‘kidlashadi. Ding Wangdao fikriga ko‘ra, “kirish so‘zlar tushirib qoldirilgan taqdirda gapning grammatik tuzilishiga hech qanday zarar yetmaydigan butun bir bo‘lakdir” [1, 48]. Liang Wenyang ham bu fikrga qo‘shiladi [2, 206]. Ikkinchi oqimdagi olimlar esa kirish so‘zlarning mustaqil bo‘lakligini rad etishadi. Djang Daodjen fikricha, kirish so‘zlar “hol va mustaqil gap bo‘lagi orasida mavjud bo‘lgan” yoki “holga yaqin bo‘lib, hol deyilsa xato bo‘lmaydigan” [3, 495] so‘zlardir. Djaio Yong va Vang Fangning fikricha, kirish so‘zlar mustaqil bo‘lak emas, balki mavjud bo‘lgan ma‘lumotga qo‘shimcha, tushuntirish yoki baho kiritish uchun ishlatiluvchi gap bo‘lagi hisoblanadi [4, 92].

Xitoy tilida kirish so‘zlarning boshqa gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga ega emasligi haqida har xil fikrlar bo‘lganligi bilan o‘zbek tilidagi kirish so‘zlar haqidagi fikrdan farq qiladi. Lekin o‘zbek va xitoy tillarida kirish so‘zlar modal so‘zlar, fe‘l, olmosh, ravishdan tashkil topgan so‘z va so‘z birikmalari bilan ifodalanishi mumkin. Bundan tashqari, ikki tilda ham kirish so‘zlarning joyi gapda aniq belgilanmagan bo‘lib, gapning boshida, o‘rtasida va oxirida kelishi mumkin. Lyang Venyang fikricha, “kiritmalar maxsus bo‘lakligi sabab o‘zi qatnashgan gap bilan aniq

grammatik aloqaga ega emas; uning joylashuvi moslashuvchan bo‘lib, gapning boshi, o‘rtasi va oxirida bo‘lishi mumkin” [5, 206]. Demak, ikki tildagi kirish so‘zlarning asosiy farqi o‘zbek tilida kirish so‘z gap bo‘lagi hisoblanmasligi, xitoy tilida kirish so‘zlarning mustaqil bo‘lakligi haqida yakdilikka erishilmaganidir.

Kirish so‘zlar, asosan, nutqning o‘zaro bog‘liqligi va uyg‘unligini ta’minlashda hamda so‘zlovchining subyektiv munosabati va his-tuyg‘ularini ifoda etishda qo‘llaniladi. Har bir nutqdagi fikr va mulohazalar o‘zaro aloqaga ega bo‘lib, bu aloqalar nutq vositalari yordamida ifoda etiladi. Ular nutq o‘rtasidagi jummalarni o‘zaro bog‘lab, nutqning yaxlitligini va mantiqan uyg‘unligini ifodalaydi. Kirish so‘zlar jumlar va fikrlar o‘zaro mantiqan bog‘liqligini ta’minlab, ketma-ketlik, misol va isbot keltirish, qo‘shimcha ma’lumot berish, xulosa qilish, manbaani ko‘rsatish kabilar orqali nutqda mavjud bo‘lgan mantiqiy munosabatlarini aks ettiradi. Shuningdek, kirish so‘zlar jumlar tartibini ko‘rsatish va jummalarni o‘zaro bog‘lash vazifasini ham bajaradi. Bunday kirish so‘zlarni “bog‘lovchi kirish so‘zlar” deb nomlash mumkin. Ular nutqda kontekstning mantiqan o‘zaro bog‘liqligi va uyg‘unligini ta’minlab, diskursiv vazifani o‘taydi. Misol uchun:

- 同时我们看到，个别国家打着多边主义旗号，搞拉帮结派的“小圈子”；

(qo‘shimcha kiritish)

- **Shu nuqtai nazardan**, mavjud transport yo‘laklari va infratuzilmalaridan, jumladan, Kaspiy dengizi portlari, yirik transchegaraviy logistika markazlaridan to‘liq foydalanish tarafdorimiz .
(aniqlik kiritish)

Muloqot davomida muloqot ishtirokchilarining shaxsi, o‘rni, munosabati, xohish-istagi hamda voqea-hodisaga bo‘lgan fikrini ifodalash insonlararo funksiya hisoblanib, kirish so‘zlar ham nutqda insonlararo jihatdan ham vazifalar bajaradi. Bunday kirish so‘zlarni “modal kirish so‘zlar” deb nomlash mumkin. Feng Xiaoyaning fikriga ko‘ra, ularni ifoda turiga ko‘ra ikki turga bo‘lish mumkin [6, 11]. Ta’kid, ishonch, taxmin kabi so‘zlovchining subyektiv munosabatini ifodalagan kirish so‘zlarni subyektivlikni ifodalovchi kirish so‘zlarga tasniflash mumkin bo‘lsa, xursandchilik, afsus, ikkilanish kabi so‘zlovchining kayfiyati va ohangini aks ettirgan kirish so‘zlar his-tuyg‘uni ifodalovchi kirish so‘zlarga

birlashtirish mumkin. Subyektivlikni ifodalagan modal kirish soʻzlarga quyidagilar misol boʻladi:

- Bugun koʻrib chiqish uchun tayyorlangan hujjatlar, **shubhasiz**, Tashkilotimizning roli va xalqaro nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi .

- Va **albatta**, yaxshi niyat qilamizki, navbatdagi Sammitda, Ashxobod shahrida koʻrishish hammamizga nasib qilsin .

Yuqoridagi misollarda “shubhasiz” va “albatta” kirish soʻzlari soʻzlovchining bildirilayotgan fikrga boʻlgan subyektiv munosabati (tasdiq va ishonch) ifoda etilgan.

- Afsuski, koronavirus pandemiyasi xalqaro iqtisodiyotga salbiy taʼsir koʻrsatdi .

“Afsuski” kirish soʻzi soʻzlovchining afsus hissini ifodalab, his-tugʻuni ifodalovchi modal kirish soʻzga misol boʻla oladi. Ushbu kirish soʻz tinglovchiga soʻzlovchining shaxsiy munosabati haqida xabar beradi.

Modal kirish soʻzlar tinglovchi uchun oldindan xabar berish vazifasini ham bajaradi. Yaʼni, subyektiv munosabat va his-tuygʻuni ifodalagan modal soʻzlar soʻzlovchining ifodalanayotgan fikr yoki xabar haqida qanday oʻylashini ifodalaydi. Masalan, oxirgi misolda soʻzlovchi jumlasini “afsuski” kirish soʻzi bilan boshlab, uning ketidan salbiy maʼnoga ega xabarni ifodalagan. Kirish soʻzni eshitgan tinglovchi ham shunday turdagi xabar yoki fikrni eshitishga tayyor turgan. Bu nutqning oson tushunilishiga, muloqotning yaxshi rivojlanishiga yordam beradi.

Siyosiy diskursda soʻzlovchilar har bir soʻzni tanlab ishlatadi hamda nutqdagi maʼlumot va xabar oʻzi koʻzlagan maqsadga muvofiq ifoda etilishiga harakat qiladi. Siyosiy diskurs soʻzlovchilari baʼzan aniq va qatʼiylik bilan soʻzlashi, baʼzan esa oʻz munosabatini ehtiyotkorlik bilan yetkazishi kerak. Shuningdek, ularning nutqi rasmiy uslubga muvofiq holda ifoda etilishi kerak. Bundan tashqari, ularning nutqi mantiqan bogʻliq va yaxlit boʻlishi kerak. Kirish soʻzlar siyosatchilarning nutqi ushbu talablarga javob berishini taʼminlashda muhim rol oʻynaydi.

Kirish soʻzlarni real siyosiy vaziyatda oʻrganish maqsadida, Xitoy va Oʻzbekiston siyosatchilari, jumladan, ikki davlar rahbari va XXR siyosatchilarining ikki tildagi umumiy hisobda 20 ta nutqi asos qilib olindi.

Ushbu manbaalarda soʻzlovchilar qoʻllagan kirish soʻzlar pragmatik jihatdan tahlil qilinib quyidagi natijalar kuzatildi:

1-jadval. Oʻzbek va xitoy nutqlarida kirish soʻzlarning qoʻllanilishi

	Oʻzbek tilidagi nutqlar	Xitoy tilidagi nutqlar	Umumiy
Kirish soʻzlar	86	50	136
Bogʻlovchi	76	50	126
Modal	10	0	10

Koʻrsatkichlar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek siyosiy nutqlarida kirish soʻzlar koʻproq qoʻllanilib, ularning soni xitoy nutqlaridagi kirish soʻzlarning umumiy sonidan yarim baravar koʻp. Shu bilan bir qatorda, oʻzbek nutqlarida kirish soʻzlarning ikki turi ham foydalangan boʻlsa, xitoy siyosatchilarining nutqlarida modal kirish soʻzlarning foydalanishi kuzatilmadi. Ular subyektivlik va his-tuygʻuni ifoda etishda kirish birikmalardan (我相信) foydalangani kuzatildi. Bundan tashqari, oʻzbek nutqlarida kirish soʻzlarining ikki turidan ham foydalanilgan boʻlsa ham, ularning qoʻllanilish soni oʻrtasidagi tafovut katta: bogʻlovchi kirish soʻzlar 76 marta qoʻllanilgan holda, modal kirish soʻzlardan faqatgina 10 marta foydalanilgan.

Yuqoridagi jadval shuni koʻrsatadiki, siyosiy nutqlarda siyosatchilar koʻproq nutqning yaxlitligi va mantiqan bogʻliqligini taʼminlash uchun bogʻlovchi kirish soʻzlardan foydalanib, tinglovchilarning nutqni oson va tez anglab yetishiga zamin yaratishgan. Demak, siyosiy nutqlarda kirish soʻzlar, asosan, nutqning uygʻunligini mantiqiy munosabatini ifodalashda foydalaniladi deyish mumkin. Siyosiy diskurs rasmiy uslub qoidalariga amal qilgani sabab unda nutqning mantiqiy bogʻliqligi va uygʻunligi katta ahamiyatga ega.

2-jadval. Oʻzbek tilidagi kirish soʻzlarning xitoy tiliga tarjimasi

	Kirish soʻzlar	Tarjima
Bogʻlovchi kirish soʻzlar	avvalambor	首先
	birinchi, ikkinchi, birinchidan, ikkinchidan, ...	第一, 第二, ...
	ayniqsa	尤其是 ..., 特别是 ...

	xususan	1) 尤其是 ..., 特别是 ... (ayniqsa ma'nosida) 2) 主要是 ... (asosan ma'nosida)
	jumladan	包括 ..., 包括 ... 在内
	shuningdek	同时, 还有, 再者, 更有甚者, 此外, 另外, 况且
Modal kirish so'zlar	afsuski	很可惜 ..., 可惜的是 ..., 让人遗憾的是 ...
	albatta	当然, 不用说, 毋庸置疑, 一定会 ..., 必会 ...
	shubhasiz	无疑, 的确, 确实, 毫无疑问, 毋庸置疑, 千真万确
	ishonamanki, aminmanki	我相信
	o'ylaymanki	我认为, 我相信, 依我看, 依我之见
	ma'lumki	众所周知, 人所共知, 家喻户晓, 无人不晓, 我们知道, 大家都知道

Ushbu jadvalda o'zbek tilidagi kirish so'zlar xitoy tilidagi bir nechta tarjimasini taklif etilgan bo'lib, ular rasmiy uslubga mos ravishda tanlandi. O'zbek tilidagi kirish so'zlarning xitoy tiliga tarjimasini haqida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. O'zbek tilidagi kirish so'zlar xitoy tiliga tarjima qilinganda, so'z (无疑, 当然), so'z birikma (尤其是) va gap (我相信, 我认为) ko'rinishida bo'lishi mumkin.

2. Kirish so'zlar xitoy tilida sifat (可惜), ravish (当然), fe'l (包括), son (第一), bog'lovchi (首先), frazeologizmlar (众所周知) kabilar bilan ifodalanishi mumkin.

3. His-tuyg'u ifodasi uchun kirish so'zlarni 3 turda tarjima qilish mumkin:

1) 很 + tuyg'uni ifodalovchi so'z: 很可惜 ..., 很高兴 ...;

2) Tuyg'uni ifodalovchi so'z + 的是: 可惜的是 ...;

3) 让人 + tuyg‘uni ifodalovchi so‘z + 的是: 让人遗憾的是.

4. Xitoy tilida frazeologizmlarning foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘lib, ular siyosiy diskurda nutqqa rasmiylik tusini beradi.

Quyidagi jadvalda esa xitoy tilidagi nutqlarda uchragan kirish so‘zlarning o‘zbek tiliga tarjimasi taklif etilgan:

3-jadval. Xitoy tilidagi kirish so‘zlarning o‘zbek tiliga tarjimasi

	Kirish so‘zlar	Tarjima
Bog‘lovchi kirish so‘zlar	首先	Avvalambor, birinchi navbatda
	最后	Oxirida, so‘zimning oxirida
	第一, 第二, ...	Birinchi, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchidan
	同时	shuningdek, shu bilan bir qatorda, shu bilan birga
	包括	jumladan, shu jumladan, ...ni ichiga olgan holda
	相反	aksincha

Bundan tashqari, xitoy so‘zlovchilari modal kirish so‘zlar ifoda etgan ma‘noni kirish so‘z bilan emas, kirish birikma yoki gap bilan ifoda etgani kuzatildi:

•在中国人民欢度新春佳节的喜庆日子里，同各位新老朋友在北京相聚，我感到十分高兴。

•中方认为，各种倡议好不好，关键要看是否坚持发展优先、是否坚持开放包容、是否坚持互利共赢、是否坚持行动导向。

Ikki tildagi kirish so‘zlarning taklif qilingan tarjimalari tarjimonlar tomonidan ishlatilib, to‘g‘ri tarjima amalga oshirishiga xizmat qiladi. Kirish so‘zlarni tarjima tiliga tarjima qilinishida kuzatilgan xususiyatlarni bilish tarjimon va til o‘quvchilariga ikki til orasidagi lingvistik va madaniy xususiyatlarni aniq tushunishiga yordam beradi hamda ularda keyinchalik o‘xshash kirish so‘zlar uchraganida, taklif etilgan tarjimaga asoslanib tarjima qilish ko‘nikmasini yetishtiradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 丁往道. 英语插入语的修饰作用. // 外语教学与研究. – 北京, 1962. – № 1. – 页 48.
2. 梁文阳. 国内插入语研究情况调查. // 长沙铁道学院学报. – 长沙, 2010. – № 11 (3). – 页 206.
3. 张道真. 实用英语语法. – 北京: 商务印书馆, 1980. – 页 495.
4. 赵勇, 王芳. 英语“插入语”的认知语法研究. // 文山学院学报. – 文山, 2014. – № 2 (27). – 页 92.
5. 梁文阳. 国内插入语研究情况调查. // 长沙铁道学院学报. – 长沙, 2010. – № 11 (3). – 页 206.
6. 封小雅. 插入成分汉英对比分析: 学士论文. 本科. – 武汉: 华中科技大学, 2004. – 页 11.
7. Насирова, С. А. (2022). Неологизмы–идеологемы в качестве проводников межкультурной коммуникации (на примере общественно-политической терминологии современного китайского языка. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 27), 6-15.
8. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
9. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND’S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.
10. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
11. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
12. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.